

PERFECT HUMAN EDUCATION IN THE INTERPRETATION OF EASTERN THINKERS (ABDURAHMAN JAMIY)

Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna
Uzbek-Finnish Pedagogical Institute
Teacher of the Department of Pedagogy

Abstract: The upbringing of a harmoniously developed person has always been one of the most important social requirements, but at a time when today's qualitative changes are taking place, the urgency of this issue is growing. Morality is a form of social consciousness, a set of specific rules of behavior that people in a particular society must follow.

KOMIL INSON TARBIYASI SHARQ MUTAFAKKIRLARI TALQINIDA (ABDURAHMON JOMIY)

Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institutining
Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Barkamol shahsni tarbiyalash barcha davrlarda muhim ijtimoiy talablardan biri bo'lib kelgan, ammo bugungi sifat o'zgarishlar ro'y berayotgan bir davrda bu masalaning dolzarbligi yanada kuchayib talab ortib bormoqda. Ahloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo'lgan ma'lum xatti-harakat qoidalari yig'indisidir. Ahloq odamlarning bir-birlariga, jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga, ishlab chiqarish vositalariga, mehnat mahsulotlari va shu kabilarga munosabatini muayyan tartibga soladigan xatti-harakat qoidalari tizimida namoyon bo'ladi. Odob – odamning jamoat, el-yurt orasida o'zini tutish, boshqalar bilan qay yo'sin muomala qilish, o'z turmushi, maishati va bo'sh vaqtini qanday tashkil etishi, xullas, shaxsning kundalik xulq-atvori, yurish-turishi, xatti-harakatlari qanday bo'lishi lozim va ma'qul ekanligi xususida bahs etadi. Aniqrog'i, ahloq kishining ichki olami, e'tiqodi, fazilatlari sifatida mavjud bo'lsa, odob shaxsning ko'zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomala-munosabatlari tarzida namoyon bo'ladi.

Ahloq kishidan har xil holatlarda qanday yo'l tutish kerakligini yaxshi o'ylab, maqsadga muvofiq harakat qilishni talab etsa, odob o'z qoidalarining odat tusiga kirishini, ya'ni har qanday vaziyatda ana shu odatni namoyon qilishini taqozo qiladi. Ahloq ilmi yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi murakkab muammolar haqida bahs yuritib, insonning kamolotga erishish yo'lini yoritib boradi. Har bir inson bir olam bo'lgani kabi uning ahloq-odob ham juda murakkab olam, desak yanglishmaymiz. Ahloqli, odobli komil insonda odamiylikning eng yaxshi xislatlari: mehr-muhabbat, rahm-shafqat, adolatu diyonat, hayoyu iffat, vafoyu sadoqat, himmatu saxovat, imon-e'tiqod kabilar mujassam bo'ladi, Ayni holda shu xislatlarning aksi beburd, ahloqsiz kimsalar fe'lida ko'rinadi. Qadimgi faylasuflaru donishmandlar ahloq-odobga juda katta baho berib, uni jamiyatning poydevori deganlar. Asrlar davomida ahloq-odob mavzuida qanchadan-qancha kitoblar, hikmatnomalar, odobnomalar, pandnomalar va nasihatnomalar, ibratli hikmatu rivoyatlar yaratilgan. Xalq og'zaki ijodi xazinalarida ahloq-odobga doir bebaho fikr javohirlari borki, ularning hammasini hisoblab-hisobiga, ta'riflab-ta'rifga yetib bo'lmaydi. Muqaddas Qur'oni Karimda va payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning hadislarida insoniy ahloqodobning barcha qirralari o'z ifodasini topgan.

Ulug' mutafakkir va gumanist *Abdurahmon Jomiy* (1414-1492) Hirot yaqinidagi Xarjird qishlog'ida dunyoga keladi. Samarqandga kelganidan so'ng mutafakkir *Qozi-zoda Rumiy* va *Xoja Ali Samarqandiy*ning geometriya, algebra va astronomiya bo'yicha ma'ruzalarini tinglaydi. Keyinchalik shoir shayx *Sa'diddin Qoshg'ariyga* shogird tushib, Naqshbandiylik tariqatini undan o'rgana boshlaydi va Naqshbandiylik sulukining ko'zga ko'ringan nazariyotchisiga aylanadi.

Jomiy qomusiy olim edi. U geometriya, astronomiya, kosmografiya, matematika fanlarini puxta o'zlashtirgan, arab tili, falsafa, ritorika, axloqshunoslik borasida yirik asralar yozgan edi. Allomaning muhim asarlari sirasiga «Bahoriston», «Sharxi ruboiyot», «Haft avrang», «Lavoih», «Nafahot ul-uns» va boshqalar kiradi.

Jomiy borliqni *vahdati vujud* ta'limoti asosida talqin qiladi. Uning tushuntirishicha, Xudo butun mavjudotlarning bosh sbaabchisi, ijodkoridir. U abadiy. Qolgan hamma narsa va hodisalar o'tkinchi va vaqtinchadir. Uning e'tiqodicha, Xudo yagona bo'lmaganda edi, dunyoda tartibsizlik hukm surar edi. Unda dunyo qonun asosida faoliyat ko'rsatmagan, tinchlik eshiklari ochilmagan bulur edi. Butun dunyo yo'qlikka aylanib, balki bu yo'qlikdan chiqaolmagan bo'lur edimi.

Jomiy gumanistik ta'limotining markazida inson turadi. Shoir insonning bilish qobiliyati cheksiz ekanligini ta'kidladi, asarlarida shaxs erkinligi, adolat, sahovat, mehnatsevarlik, to'g'rilik, bilimdonlik haqida fikr yuritdi. Uning aytishicha, inson mehnat faoliyatida moddiy dunyo hodisalarini idrok qiladi. «Imkoni boricha hamma narsa haqida haqiqatni bilishga intiladigan va o'zining bilib olgan narsalarini amalda qo'llay oladigan kishi dono deb atiladi».

Jomiy o'z asarlarida jabr-zulm qiluvchilar va zo'ravonlarni qoraladi. Zero, ular shahar va qishloqlarni harobaga aylantiradilar, dehqon va hunarmandlarni talaydilar. Jomiy mehnat ahllarini davlatning tayanchi deb bildi. Shuning uchun u boy va amaldorlar, hukmdorlarni dehqonlarni qo'llab-quvvatlashga, ularni mehnatini qadrlashga da'vat etdi, davlatni asosi adolat ekanligini alohida ta'kidladi.

Jomiy ilm-fan bilan shug'ullanishni inson uchun qadrlil va munosib ish deb bildi.

Jomiy kishilarni yoshlikdan tarbiya qilishga, ularga kasb-hunarni egallashga qiziqish uyg'otishga da'vat etdi. Olim johillik, nodonlik, mag'rurlik, o'z boyligi bilan maqtanishni qattiq qoraladi.

Jomiy, xuddi Sharqning boshqa mutafakkirlari kabi, davlatni dono, ma'rifatli va adolatli hukmdor boshqarishi lozim, deb o'yladi. Hukmdorning donoligi adolat va qonunlarga amalga qilishida namoyon bo'ladi. Jomiy o'zboshimchalik, qonunsizlik, jabr-zulm, zo'ravonlikdan holi bo'lgan davlat tuzumini orzu qildi. U «Iskandar xiradnomasi» asarida mukammal shahar-davlatni tasvirlaydi. Iskandar uzoq yurishlardan so'ng bir shaharga yetib keladi. U podshohsiz boshqariladi. Bu shahar juda obod bo'lib, unda hamma tinch, kambag'al va boylar yuq, hamma mehnat bilan mashg'ul, odamlari halol va yuksak fazilat egalari. Fors-tojik shoiri, naqshbandiylik tariqatining yirik vakili Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad Jomiyning asarlari falsafa, tasavvuf, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, san'at sohalariga hamda nazm va nasrning har xil janrlariga oiddir. Jomiy asarlarining bir qismi diniy va falsafiy mazmunga ega bo'lib, ularda shoir islom dini va sharq falsafasining bir qator masalalarini o'z qarashicha talqin etadi, tasavvufning XV asrdagi yirik arbobi sifatida o'z fikr-mulohazalarini bayon etadi. Uning «Ma'nolar naqshi», «Payg'ambarlikka dalillar», «Naqshbandiya ta'limoti haqida risola», «Haj qilish yo'llari haqida risola» kabi bir qancha asarlarini shu guruhga kiritish mumkin. Jomiy falsafasining asosini tasavvufiy g'oyalar tashkil etadi. O'z davrining taniqli til, adabiyot olimlari va mudarrisarlari qo'lida tahsil olgan, u arab tilini mukammal o'rgangan. Jomiy o'z bilimni oshirish uchun Samarqanddagi Ulug'bek madrasasida buyuk falakiyotshunos Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, fiqhshunos Fazlulloh Abullaysdan ta'lim olgan.

Jomiy til va adabiyotnigina emas, riyoziyot, falsafa, huquqshunoslik, falakiyot fanlari, din asoslari, hadis va tafsir ilmlarini ham chuqur o'rgangan, olimlarning turli mavzulardagi munozara va mubohasalarida qatnashib, yetuk olimligi bilan tanila boshlagan. Jomiy Hirotga qaytgach, tasavvuf yo'liga kirishni, o'z bilim va faoliyatini shu yo'lga, qolaversa, ijodga, ilm-fanga bag'ishlashni afzal ko'rgan. U o'ziga pir qilib Shayx Sa'diddin Koshg'ariy tanlaydi, Hirotning jome masjidida uning suhbatlarini tinglaydi. Sa'diddin Koshg'ariy tasavvufda Muhammad Naqshband sulukiga mansub edi. Adabiyotshunos Sultonmurod Olim «Jahon adabiyoti» jurnalidagi maqolasida quyidagi fikrlarni keltirib o'tgan: «Hazrati Naqshbandning o'zlari-ku Uvaysiy edilar. Ammo olamdan o'tganlaridan keyin u azizning ruhlari kelib kimsan – hazrati Maxdum Abdurahmon Jomiyga tarbiya bergan. Navoiy piri va ustoz haqida shunday deb yozadi: «Zohir yuzidin o'zlarin qutb ul-muhaqqiqin (Xudoni – Haqni izlovchilar qutbi) va g'avs us-solikin (soliklar madodkori) Mavlono Sa'd ulmillati va-d-din (millatu dinning baxti) il-Koshg'ariy murid ko'rguzurlar erdi, ammo, hamonki, uvaysiy (!) erdilar va Xoja Bahouddin Naqshband ruhoniyyatidin tarbiyat topib erdilar» [1, 185]. Jomiy mashhur so.,fiylar bilan yaqindan muloqotda bo'ladi. Muhyiddin ibn al-Arabiyning asarlarini chuqur mutolaa qilgan. O'zining mutasavviflik faoliyatida Bahouddin Naqshband g'oyalarini shu sulukning ikkinchi

bir yirik namoyandasi – Xo,ja Ahror bilan yaqin bo'lgan holda yanada rivojlantirgan. Asarlarida Naqshbandga ixlosi baland bo'lgan. Xurosonda Hirot taxtiga temuriy Sulton Husayn Boyqaro o'tirgandan so'ng Jomiyning mamlakatdagi mavqeyi juda ortadi, chunki Sulton Husayn va uning ko'p avlodlari o'zlarini unga murid, deb e'lon qilganlar. Jomiy Alisher Navoiy bilan birinchi marta Abu Said hukmronligi davrida Xiyobon mavzesida hamma qatori ko'rishgan. Shunda Jomiy unga o'zining bir risolasini taqdim qilgan. 1476-77-yillarda Navoiy ham Jomiyning o'ziga pir, deb taniydi. Garchi Jomiyning Navoiydan yoshi ancha ulug', rasman pir hisoblansa ham, mohiyatan ular chin do'st va hamkor bo'lganlar. Jomiy o'zining ("Nafohat ul-uns", "Bahoriston" va boshqa) bir qancha asarlarida Navoiyni, Navoiy ham o'z asarlari ("Xamsat ul-mutahhayirin", "Majolis un-nafois" va b.)da Jomiyning hurmat bilan tilga oladi. Jomiy "Nafohat ul-uns" ("Azizlar nafasi"), "Risolai musiqiy" ("Musiqqa risolasi"), "Risolai muammo" ("Muammo risolasi") kabi o'ndan ortiq asarini Navoiy maslahati bilan yozgan. Jomiy vafotidan oldin lirik she'rlarini 3 devonga bo'lib, ularga "Fotihat ush-shabob" ("Yoshlikning boshlanishi"), "Vositat ul-ikd" ("O'rtadagi dur") va "Xotimat ul-hayot" ("Hayot xotimasi", 1479-1491) deb nom berar ekan, bunda Navoiy maslahatini e'tiborga olgan edi. Navoiy va Jomiyning do'stligi adabiy hamkorlik bilan chegaralanmagan. Navoiy Husayn Boyqaro saroyida bosh vazir bo'lib turar ekan, o'z siyosiy va ijtimoiy faoliyatida Jomiydan maslahatlar olib turgan. Sulton Husayn Qunduz viloyatiga qarshi yurishga o'tlanmoqchi bo'lganda, Jomiy Navoiydan podshohni bu safardan qaytarishni iltimos qilgan ekan. Saroydagi fitna va fujurlar Navoiyning joniga tegib, u o'z vazifasidan ketmoqchi bo'lganda Jomiy uni bunday qarordan voz kechishiga sababchi bo'lgan.

XULOSA. Yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'ldiki, sharq murafakkirlari o'zlarining pedagogik qarashlari bilan o'z davrlaridan ancha ilgari ketganlar. Ularning bu qarashlari bir necha asrlardan beri ajdodlarimiz tafakkurini boyitib kelmoq da va hozirgi kunda ham ular o'z qiymatini yo'q otgani yo'q Ular bizning ma'naviy qadriyatimizdir. Shunga ko'ra mutafakkirlarning o'lmas marosi oilada bolalarning ma'naviy ahloqiy tarbiyalashning muhim omili bo'lib qoladi

Adabiyotlar Ro'yhati

1. A.Mavlonova, B.Normurodova. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi". O'quv qo'llanma. Toshkent, "FAN" 2008 y.
2. Mavlonova R.A., To'raev O.T., Xasanboeva O, Xoliqberdiev K.M. –
3. «Pedagogika» T., «O'qituvchi» – 1998 i.
4. Ismoilova Z. Tarbiyaviy ish metodikasi – T.: Istiqlol, 2003.
5. Shodmonova Sh., Tilobova N. "Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti" o'quv predmetidan ta'lim texnologiyasi – T.: TDIU, 2006.
6. Kukushin V.S. Teoriya i metodika vospitaniya. Rostov nqD.: Feniks, 2006.
7. Kukushin V.S. Teoriya i metodika vospitatelnoy raboto'. – Rostov nqD.: MarT, 2004.